

D.I.Mendeleyev nomidagi RKTU Toshkent filiali talabasi "Uzbekistan GTL" stipendiyasi sohibasi bo'ldi

// 24.01.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/d-i-mendeleyev-nomidagi-rktu-toshkent-filiali-talabasi-uzbek>



D.I.Mendeleyev nomidagi RKTU Toshkent filiali talabasi "Uzbekistan GTL" stipendiyasi sohibasi bo'ldi.



23-yanvar kuni "Uzbekistan GTL" stipendiya dasturi go'liblarini taqdirlash marosimi bo'ldi. Ahamiyatlisi, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universiteti Toshkent filiali 3-bosqich talabasi Durdona Muxtorxo'jayeva "Texnologiyalar" yo'nalishi bo'yicha "Uzbekistan GTL" stipendiyasi sohibasi bo'ldi.



Universitetning 3-bosqich talabasi Zuhra Mahkamova, 4-bosqich talabalari Aliya Tagayeva va Muhammad Akromovlarning tanlovdagi faol ishtiroki alohida e'tirof etildi. Ularga "Uzbekistan GTL" zavodida amaliyot o'tash imkoniyati beriladi.



"O'zkimyosanoat" AJ D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universiteti Toshkent filiali talabalarini ushbu muvaffaqiyat bilan tabriklaydi va kelgusi ishlariga ulkan zafarlar tilaydi.

